



BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA O'Z-O'ZINI BAHOLASHLIKNING AHAMIYATI

Kenjayeva Maftuna

*Andijon davlat pedagogika instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining dars jarayonida o'z-o'zini baholash jarayoni muhim ekanligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: intellekt, baho, shaxs, bilim, dars, baholash.



Ma'lumki, bugungi kunda Jahonda Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan mamlakatlar tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha belgilangan ta'lim konsepsiyasida boshlang'ich ta'lim tizimi "Ta'lim taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat" sifatida e'tirof etilib, sifatli ta'lim berish, o'zlashtirish natijalarini baholash usullarini takomillashtirish va o'quvchilar intellektual darajasini rivojlantirishning samarali usullaridan keng foydalanishga bo'lgan ehtiyojlarini yanada kuchaytirdi. Pespublikamizda boshlang'ich sinf o'quvchilarining erkin, mustaqil fikrlashi, atrofdagi voqelikka ongli munosabatda bo'lishi, o'zini-o'zi baholashi va ijtimoiy faollik kabi sifatlarini rivojlantirish jamiyatda, ta'lim tizimida asosiy masalalar sifatida qaralmoqda⁷². Bu esa o'z navbatida o'quvchilarga yahshi ta'lim berish va ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun yana bir muhim jarayonlarni tashkil qiladi. O'quvchilarning bilimni baholash jarayonida turli usul va vositalardan foydalanish, o'quvchilarning qobiliyatlarini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bu esa ta'lim jarayonini takomillashtirish va har bir o'quvchining individual o'sishini ta'minlashga yordam beradi. Baholash jarayoni doimiy ravishda o'zgartirilishi va yaxshilanishi kerak, chunki har bir sinf va o'quvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ma'lumki, o'qitish tizimida baholashning o'ziga hos jihatlari mavjud bo'lib, bu jarayon natijasida o'quvchilar yanada fanga bo'lgan qiziqishlari ortadi, shuningdek yangiliklarga ega bo'ladi. Shu usullardan biri, o'z-o'zini baholash usuli hisoblanib, bu usul dars jarayonida o'quvchilarni har tomonlama rivojlanishi uchun kata ahamiyatga ega.

O'z-o'zini baholash — bu shaxs tomonidan o'zini sub'ektiv baholash. O'z harakatlari, fazilatlarini, his- tuyg'ulari baholay olish xususiyati.

O'z-o'zini baholashning xususiyatlari:

⁷² N.A.Mahmudova. O'smirlarda o'z-o'zini baholash orqali mustaqil bilish faolligini rivojlantirish. Namangan 2022 yil.bet-7





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- Tartibga solish — shaxs tomonidan vazifalarni qabul qilish va shaxsiy qarorlarni tanlash
 - Himoyalash — shaxsning nisbiy barqarorligini va uning mustaqilligini ta'minlash.
 - Rivojlanish- shaxsni rivojlanish va takomillashtirishga undaydi.
 - Reflektiv (yoki signal) — insonning o'ziga va uning harakatlariga bo'lgan haqiqiy munosabatini aks ettiradi, shuningdek, sizning harakatlaringizning adekvatligini baholashga imkon beradi.
 - Hissiy — insonga o'z shaxsiyati, uning fazilatlari va xususiyatlaridan qoniqish his qilish imkonini beradi.
 - Moslashuvchanlik — insonning jamiyat va uning atrofidagi dunyoga moslashishiga yordam beradi.
 - Prognostik — faoliyatning boshida shaxsning faoliyatini tartibga soladi.
 - Korreksion — faoliyatni amalga oshirish jarayonida nazoratni ta'minlaydi.
 - Retrospektiv — insonga uni amalga oshirishning yakuniy bosqichida uning xatti-harakati va faoliyatini baholash imkoniyatini beradi.
 - Rag'batlantirish - ma'qullash va ijobiy o'zini o'zi baholash reaksiyalarini olish uchun harakat qilishga undaydi (o'zini qoniqtirish, o'zini o'zi qadrlash va g'ururni rivojlantirish).
 - Terminal — agar uning xatti-harakatlari o'z-o'zini tanqid qilish va o'zidan norozilik paydo bo'lishiga hissa qo'shsa, odamni to'xtatadi (faoliyatini to'xtatadi).

O'z-o'zini baholashni shakllantirishda boshqalarning bahosi va shaxsning yutuqlari muhim rol o'ynaydi. Nazariy jihatdan, o'z-o'zini baholash — bu shaxsning o'ziga bo'lgan bahosi. O'z-o'zini anglash nafaqat o'zini o'zi bilish, balki o'ziga nisbatan ma'lum bir munosabatdir: o'z fazilatlari va holatlari, imkoniyatlari, jismoniy va ma'naviy kuchlari, ya'ni o'zini o'zi qadrlash demakdir.

Xulosa qilib aytadigon bo'lsak, inson shaxs sifatida o'zini-o'zi baholaydigan mavjudotdir. Odamlar o'zini, harakatlarini va munosabatlarini baholashi mumkin. O'z-o'zini baholamasdan turib, hayotda o'zini-o'zi belgilash qiyin va hatto imkonsizdir. Haqiqiy o'zini-o'zi qadrlash o'ziga tanqidiy munosabatda bo'lish, o'z imkoniyatlarini hayot talablariga doimiy ravishda moslashtirish, o'z oldiga amalga oshirilishi mumkin bo'lgan maqsadlarni mustaqil ravishda qo'yish qobiliyati, o'z fikrlari va uning natijalarini qat'iy baholash, ilgari surilgan maqsadlarni sinchkovlik bilan tekshirishni o'z ichiga oladi. Haqiqiy o'z-o'zini baholash insonning qadr-qimmatini saqlab qoladi va unga ma'naviy qoniqish hissini beradi





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.
2. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.
3. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.4 (2022): 70-81.
4. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.3 (2022): 288-296.
5. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."
6. Abdullayeva, N. A. (2022). Ilmiy tadqiqot olib boorish komponentligi-bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish omili sifatida. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 601-612.
7. Abduqodirov A. "Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish: bugungi holat va kelgusidagi reja va takliflar" T.: "Xalq ta'limi"-2018.
8. Boymurodova G.T. "Boshlang'ich sinflar uchun matematik fanini o'qitishning amaliy metodik asoslari" –T "Navro'z", 2016.

